

EGOIZM PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Karayeva Yulduz Xushbakovna

TerDU psixologiya kafedrası v/b dotsenti,
psixologiya bo'yicha falsafa doktori PhD,

[Email:karayevayulduz@mail.ru](mailto:karayevayulduz@mail.ru)

***Annotatsiya:** Hozirgi kunda egoizm mohiyatini tushuntirishda psixologiya fanida ikkita qarama-qarshi konsepsiya mavjud bo'lib, ulardan biri egoizmning biologik tabiatini ta'kidlasa, keyingisi egoizmni o'z shakllanish jarayonida ko'proq ijtimoiy omillar ustuvorlik qiladi, deya izohlashadi. Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o'rganilgan va ta'riflangan xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan o'smirlik davri xususiyatlari, shaxs emotsional sohasining ma'lum qirralari o'rganilgan bo'lsa-da, egoizm muammosining asosiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilish holatlari kam ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada o'smirlik davrida egoizm namoyon bo'lish xususiyatlari psixodiagnostikasini eksperimental tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Egoizm, motivatsiya, egoist, hulq-atvor, nartsissizm, egotsentrizm, shaxsning egoistik yo'nalganligi, egoistik tendensiya, dispozitsion egoizm, gedonizm.*

EGOISM AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

***Abstract:** Currently, there are two conflicting concepts in the psychology of explaining the nature of egoism, one of which emphasizes the biological nature of egoism, and the other explains that egoism is prioritized by more social factors in the process of its formation. Egoism is one of the main motivational and meaningful characteristics of a person and remains one of the least studied and determined characteristics. Although the characteristics of adolescence and certain aspects of the emotional sphere of personality have been studied by researchers, there are few cases when the problem of egoism is studied as the main subject of research. This article experimentally investigates the psychodiagnostics of the features of egoism in adolescence.*

***Key words:** Egoism, motivation, egoist, behavior, narcissism, egocentrism, egoistic orientation of a person, egoistic tendency, dispositional egoism, hedonism.*

KIRISH: Hozirgi kunda egoizm mohiyatini tushuntirishda psixologiya fanida ikkita qarama-qarshi konsepsiya mavjud bo'lib, ulardan biri egoizmning biologik tabiatini ta'kidlash, keyingisi egoizmni o'z shakllanish jarayonida ko'proq ijtimoiy omillar ustuvorlik qiladi, deya izohlashadi.

Egoizmning bosh g'oyasi — o'zini yaxshi ko'rish, o'zining shaxsiy manfaatlarini o'z g'alar manfaatlariga nisbatan ustun qo'yish, jamiyat va atrofdagilar manfaatlariga e'tiborsizlik munosabatni namoyon etadigan shaxs xulq-atvorining ko'rinishidir [62; 939-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Egoizm mohiyatini tushuntirishda va izohlashda olimlar turlicha yondoshganligini kuzatish mumkin. Jumladan, ingliz faylasufi Djeremi Bentamning ta'rificha, egoizm bu odamni o'zini rohatlantirish, yoqimli kechinmalarni kechirish yoki yoqimsiz tuyg'ulardan voz kechishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisidir [121; 1973-b.]. Sovet ensiklopedik lug'atida egoizm (fransuzcha egoisme, lotincha ego — men) – o'zini yaxshi ko'rish; butunlay o'z foydasi, manfaati bilan belgilanadigan xulq, o'z ehtiyojlarini boshqalarnikidan yuqori qo'yish, deb ta'riflangan [116;1538-b.] Xorij ensiklopedik lug'atida egoist bu – xatti-harakatlarida rohatlanish va zavq olishga moyil bo'lgan shaxs ko'rinishidir, deb izohlangan [116]. M.Yu.Kondratev tahriri ostidagi ijtimoiy psixologik lug'atda esa egoizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Egoizm” (lot. ego — men) subyektning qadriyatli yo'nalishi bo'lib, boshqalar va ijtimoiy guruhlarining manfaatlaridan qat'iy nazar o'z shaxsiy manfaat va ehtiyojlarining ustunligi bilan tavsiflanadigan xulqdir [85;176-b.]. Ta'rifdan ko'rib turganimizdek, egoistik xulq - atvorga ega shaxs faqat o'zini o'ylaydi, boshqalarga esa o'zining maqsadlariga erishish vositasi sifatida munosabatda bo'ladi.

Egoizm atamasi “egoizm”, ya'ni lotincha “Men” so'zidan kelib chiqqan, ingliz tilida esa “egoism” - “selfishness”, ya'ni “men” degan ma'noni bildiruvchi “self” so'zlarining sinonimi sifatida keltirilgan. “Egoizm” so'zining ma'nosi barcha izohli lug'atlarda deyarli bir xil bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamon fanida uning psixologik mohiyati to'g'risidagi tasavvurlarda yagona tushuncha mavjud emas, ko'p hollarda «egoizm» atamasi bilan bir qatorda bir vaqtning o'zida o'z mazmuniga ko'ra farq qiladigan, lekin ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladigan bir nechta boshqa tushunchalar mavjud bo'lib, ular individualizm, nartsissizm, egotsentrizm, shaxsning egoistik yo'nalganligi, egoistik tendensiya, dispozitsion egoizm, gedonizm, shaxsning betakrorligi yoki motivatsion holati singari sinonimik tushunchalar bilan birga ko'rib chiqilgan [46; 212-225-b.].

NATIJALAR: Biz tadqiqotimizda o'smirlarda egoizm motivatsiyasiga asoslangan hulqning psixologik omillarini o'rgandik.

1- jadval

O'smirlarda egoizm va altruizmning namoyon bo'lishi (%), N=220

Shkalalar	7- sinf o'smirlar n=130	9 -sinf o'smirlar n=90
Shaxsdagi egoistik ustanovkalar	14,6%	22,2%
Shaxsdagi altruistik ustanovkalar	85,4%	77,8%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, 7-sinf o'quvchilarida egoistik ustanovkalar 14,6% ni, altruistik ustanovkalar 85,4% ni tashkil etdi. Olingan natijalardan sinaluvchilarimizda egoistik ustanovkalarga nisbatan altruistik ustanovkalarining ustunligi ko'rinib turibdi. Bu esa ularning hulq-atvorida saxiylik, o'zgalarga beg'araz yordam berish motivatsiyasining yuqoriligini anglatadi. Egoizm motivlarining ustunligi 9-sinf o'smirlarda 7-sinfidagi o'smirlarga nisbatan yuqoriligini ko'rsatib, bu ularning «Men»ning anglanganlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsdagi «Ego» darajasining oshishi bilan ifodalanadi, bundan tashqari inson ulg'aygan sari unda o'z manfaatlarini va ehtiyojlarini ko'proq o'ylash shaxs xarakteriga aylanib boradi[5]. Natijalarni gistogramma ko'rinishida ifodaladik.

MUHOKAMA: Shu nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, egoizm reprezentatsiyasining yoshga oid dinamik xususiyati 7-sinf o'smir yoshdagi sinaluvchilarga qaraganda 9-sinf o'smirlar xulq-atvorda shaxsning «Men»i xohishlarining maqsadi va motivatsiyasining asosini tashkil etgani hamda shaxslararo munosabatlardagi mavqeini tasdiqlash dominantligi bilan belgilanadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma'naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shaxs psixologiyasini o'rganar ekanmiz, uning ma'lum bir xususiyatlari va hulq ko'rinishlarini bevosita kuzatish orqaligina o'rganib bo'lmasligiga ishonamiz, chunki bu xususiyatlarda turg'unlik, barqarorlik va izchillik yo'q. Shu bilan birga, turli xil ilmiy yo'nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini turli xil yondoshuvlar asosida tushuntiradilar, biz esa o'zimizning tadqiqot ishimizda egoizmni turli yosh davrlarda namoyon bo'lishi, darajalarini tajribalar asosida o'rgandik va keyingi tadqiqotimizda egoizm yuqori ko'rsatkichdagi sinaluvchilar bilan psixokorreksion dastur asosida o'rganishni vazifa qilib belgiladik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ilin Ye.P. Psixologiya pomoshi. Altruizm, egoizm, empatiya. Piter, SPb.: Piter. 2013.414 s.
2. Levit L.Z. Egoizm, lichnostnaya unikalnost, nartsissizm: sxodstvo i razlichiya , Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. 2013, № 4
3. Ojegovv S.I., Shvedova M.U. Slovar ruskogo yazyka. Moskva: 1993.
4. Kondratev M.Yu., Ilin V.A. Azbuka sotsialnogo psixologa-praktika. M.: PYeR SE, 2007. 464 s.
5. Bojovich L.I. Lichnost i yeyo formirovanie v detskom vozraste / L. I. Bojovich. - SPb.: Piter, 2008. - 400 s.